

## **XONDAMIRNING HAYOT YO‘LI VA “XULOSAT–UL AXBOR” ASARI XUSUSIDA**

**Abraxmatova Shodiya A’zamat qizi**

E- mail: [shodiyaabraxmatova@gmail.com](mailto:shodiyaabraxmatova@gmail.com)

Denov tumani 87- maktab o‘qituvchisi

**Abrahmatova Asliya A’zamatovna**

Toshkent davlat texnika universiteti

3-kurs talabasi

E-mail: [asliyaabraxmatova@gmail.com](mailto:asliyaabraxmatova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Xondamirning hayot yo‘li, asarlari, ilmiy hamda tarixiy me’rosi tushuntirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Dorrushshifo, “Habib us-siyar”, Xuroson, Saripul, Ixlosiya madrasasi, Boburnoma, Xulosat ul- axbor, Balx, Obivard.

O‘z zamonasining yetuk tarixchisi Xondamir hayotiga doir ma’lumotlar talaygina. Xondamirning to‘liq ismi G‘iyosiddin Xumomuddin Muhammad ibn xoja Jaloliddin Muhammad ibn xoja Burxoniddin bo‘lib, u 1475 yili Hirot shahrida tug‘ilgan. Uning otasi Xumomuddin Muhammad ziyoli inson bo‘lib, temuriylardan Sulton Abu Saidning o‘g‘li Sulton Mahmud Mirzoning vaziri edi. Onasi esa mashhur tarixchi Mirxondning qizi bo‘lgan. Xondamir Hirotda o‘tib, tarix, adabiyot ilmlarini mukammal egalladi. Zamonasining yetuk olimlari qatorida o‘z ilmiy asarlarini yaratdi. Kamolatga yetishida o‘zining aqlu- farosati, chuqur ilmidan tashqari tashqari ulug‘ shoir Alisher Navoiyning o‘rni beqiyosdir. Xurosonda eng boy kutubxona hisoblanmish Navoiy kutubxonasining kaliti Xondamir qo‘lida bo‘lgan. Dastlab bu kutubxonada kutubxonachi, 1498 yildan esa mudir sifatida faoliyat yuritgan. Navoiy tarixchi olim olib borayotgan ilmiy ishlardan doim boxabar bo‘lib turgan. Olim esa

hamisha ilm sohasidagi barcha ishlarini Navoiy bilan kengashdi, undan maslahatlar oldi.

Xondamir tarix ilmiga ko‘proq qiziqanligi haqida o‘z ilmiy asarlarida, xususan, “Xulosat ul axbor”da berilgan. Xondamir Navoiy vafotiga qadar uning huzurida bo‘ldi. Va ko‘plab tarixiy asarlarni yaratdi. Navoiy vafotidan so‘ng o‘z ona yurti Balxga boradi. Balx saltanatida hukmronlik qilayotgan Badiuzzamon Mirzoning xizmatiga kirdi. Badiuzzamon Mirzo ham oqil va tadbirkor, salohiyatli, o‘qimishli inson edi. U o‘z saroyida olimlar, shoirlar, ulamolar bilan anjumanlar o‘tkazardi. U bilan Navoiy o‘rtasida ota boladek yaqinlik ham bor edi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Badiuzzamon Mirzo Navoiyning bu shogirdini o‘z qanoti ostiga olib, unga iltifotlar ko‘rsatdi. Xondamir Sulton Husayn Bayqaro vafotidan so‘ng Badiuzzamon bilan Hirotga qaytadi va 1510 yilgacha shu yerda istiqomat qiladi. U Hirotning ikki marta: birinchi marta 1507- yili Muhammad Shayboniyxon tomonidan va ikkinchi marta 1510 - yili shoh Ismoil Safaviy askarlari tomonidan istilo qilinganini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan. Bu haqida “Habib us siyar” asarida ma’lumotlar talaygina. Xondamir zamona zayli bilan 1528 - yil 18 sentyabrda Hindistonga Bobur Mirzo huzuriga keldi. Bu vatqda hukmdor Aud shahrida turar edi. Hirotlik mashhur shoir Shaxob Muammoiy va Hirotidagi “Sultoniya” madrassasining mudarisi amir Ibrohim Mashhadiy ham Xondamir bilan birga bu yerga kelgan. Bobur Mirzo “Boburnoma” asari xususida buyuk tarixchi bilan suhbatlar olib borgan. Xondamir Bobur Mirzo vafotiga qadar u bilan birga bo‘ldi. Undan so‘ng esa toju taxt vorisi Humoyunning xizmatida bo‘ldi. Xondamir Humoyunning Burxonpur viloyatiga qilgan harbiy yurishi vaqtida vafot etdi va o‘z vasiyatiga ko‘ra Dehlidagi qabristonga - Nizomiddin Avliyo va Xusrav Dehlaviy yoniga dafn etilgan. Xondamirning boy ilmiy merosi umuman tariximizning biz bilan qo‘shni bo‘lgan Afg‘oniston, Eron, Turkiya, Hindiston, va Sharqiy Turkiston xalqlari tarixi va yuksak madaniyati xususida ma’lumot beradi. “Xulosat ul axbor” asari 1498-1499 – yillar davomida Alisher Navoiyning iltimosi bilan yozilgan. Asar muqaddima, xotima va 10 bobdan iborat. Bu asarni yaratishda Xondamir bobosi Mirxondning “Ravzat us- safo” hamda Tabariy, Juvayniy, Nizomulmulk, Ja’fariy, Hamidulloh Qavziniy asarlaridan ham foydalangan.

Ushbu asarning Sulton Husayn Mirzoga bag‘ishlangan 10 -bobi va xotimasi muhim ahamiyat kasb etadi.Ya’ni bu bobda Sulton Husayn Mirzo bilan Yodgor Muhammad Mirzo o‘rtasida bo‘lgan Xuroson taxt uchun 1469-1470 yillarda olib borilgan kurash o‘z aksini topgan.Xotimada esa Hirot shahri, uning ichkari va tashqarisidagi mashhur binolar (madrasalar, masjidlar,xonaqohlar,shifoxonalar,kutubxonalar,qa’lalar), bog‘u –bo‘stonlar shuningdek, Navoiy bilan zamondosh bo‘lgan mashhur shayxlar,ulamo,olim va shoirlar, xattot va musiqashunoslar haqida ma’lumotlar berilgan.Binolar orasida Hirotida qurilgan xonaqoh va “Ixlosiya” madrasasi, “Dorushshifo “ bilim yurti, Saripuldagi masjid shular jumlasidandir.Hirotidagi eng ulkan Jomiy masjidini qayta tiklash ishida Navoiyning sa’y harakatlari katta bo‘lgan.Bu masjid XIII asr boshida g‘uriylar sulolasidan bo‘lgan G‘iyosiddin Muhammad Ibn Som tomonidan qurilgan. Yakunlash ishlari esa uning jiyani Sulton G‘iyosiddin Mahmud tomonidan amalga oshirilgan.Xondamir bu asarida Navoiy zamonida yashagan shayxlar, fozillar, shoirlar hamda “Dorushshifo” mudarrislari mavlono Muhammad Muin, mavlono G‘iyosiddin Muhammad tabiblar ham bor edi.“Xulosat ul axbor” asarining xotimasida keltirilgan ma’lumotlar XV asrda Xuroson va O‘rta Osiyoda ilm –fanning deyarli barcha sohalari rivojlanganligidan batafsil ma’lumot beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. B.Ahmedov “ O‘zbekiston tarixi manbalari” T.2001.
2. B.Ahmedov “ Tarixdan saboqlar” T. 1992.
3. Xondamir . “ Makorim ul -axloq” dan Muloqot -1991.
4. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz).